

**DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI YURIDIK XIZMAT
XODIMLARIGA MARTABA DARAJALARI BERISH TARTIBINING
NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA TAKOMILLASHUVI**

Kudratov Inomjon Sattarkulovich

Adliya vazirligi, Yuridik xizmatlar faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i

Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 5-uy

qudratovinomjon78@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga maxsus unvon – martaba darajalari berish tartibining normativ-huquqiy asoslari, mazkur institutni joriy etish zarurati, martaba darajalarini berish mezonlari hamda vakolatlar taqsimoti tahlil qilingan. Shuningdek, martaba darajalari berish tizimining yuridik xizmat xodimlari kasbiy maqomini mustahkamlash, xizmat intizomini kuchaytirish va rag'batlantirish mexanizmlarini huquqiy jihatdan tartibga solishdagi o'rni yoritilgan hamda amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan ayrim jihatlar bo'yicha taklif va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, martaba darajalari, attestatsiya, malaka va ish staji, rag'batlantirish, "Yurist-adliya" elektron tizimi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirish, huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish, shartnomaviy-huquqiy hamda talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, shuningdek, sud-huquqiy munosabatlarda tashkilot manfaatlarini huquqiy himoya qilishda yuridik xizmat xodimlari muhim o'rin egallaydi.

Yuridik xizmat xodimlarining mazkur vazifalarni professional darajada bajarishi, bir tomondan, ularning bilim va ko'nikmalariga, ikkinchi tomondan, xizmat faoliyatini baholash va rag'batlantirishning aniq mezonlari mavjudligiga

bevosita bog'liq bo'lib, bunday mexanizmlarning normativ-huquqiy hujjatlar asosda belgilanishi yuridik xizmat institutining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, yuridik xizmat xodimlariga maxsus unvon – martaba darajalari berish instituti davlat boshqaruvi tizimida yuridik xizmatning kasbiy nufuzini oshirish, xodimlar o'rtasida xizmat intizomini mustahkamlash hamda ularning kasbiy o'sishini izchil yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ – 2733-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining martaba darajalari to'g'risidagi nizomga muvofiq ushbu Nizom davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga maxsus unvonlar – martaba darajalarini berish tartibini belgilaydi hamda martaba darajalari ijobiy attestatsiya, malakasi va ish stajiga muvofiq, egallab turgan lavozimi, oldingi ish yoki xizmat joyida berilgan maxsus unvonlar, shuningdek, qonunchilikni mustahkamlash hamda aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish sohasidagi xizmatlarini hisobga olgan holda izchil tartibda berilishini nazarda tutadi.

Mazkur tizimda yuridik xizmat xodimlarining martaba darajalari 2-darajali va 3-darajali Davlat adliya maslahatchisi, 1, 2, 3-darajali adliya maslahatchisi, 1, 2, 3-darajali yurist martaba darajalaridan iborat bo'lib, bu o'z navbatida iyerarxiya tartibda yuridik xizmat xodimlarining lavozim va kasbiy o'sish bosqichlarini tartibli ko'rinishda aks ettiradi.

Shu bilan birga, Nizomda martaba darajalarini berish tartibi ularning egallab turgan lavozimini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, mazkur normalar martaba darajasi berish institutini boshqarish va yagona amaliyotni ta'minlashda vakolatli organing rolini mustahkamlaydi.

Martaba darajalari berishning amaliy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2017-yil 28-avgustdagi 265-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarini martaba darajalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2919, 2017-yil 28-avgust) hamda Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari berish tartibi to'g'risidagi nizomlar (ro'yxat raqami 2920, 2017-yil 28-avgust) orqali batafsil tartibga solingan bo'lib, unda martaba darajalarini berishning mezonlari, muddatlari, attestatsiyadan o'tkazish tartibi hamda jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlari aniq belgilangan.

Xususan, martaba darajalari xodimning egallab turgan lavozimi va mehnat stajiga muvofiq bosqichma-bosqich berilishi, shuningdek, ishchanlik va shaxsiy fazilatlari ham hisobga olinishi qayd etilgan; har bir martaba darajasida bo'lish muddati 3, 2, 1-darajali yuristlar uchun 2,5 yilni, 3, 2, 1-darajali adliya maslahatchilari uchun 4 yilni tashkil etishi belgilanganligi esa martaba o'sishining izchilligini va kadrlar boshqaruvida rejalashtirish imkoniyatini kuchaytiradi.

Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarini martaba darajalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 2919, 2017-yil 28-avgust) martaba darajalarini berish jarayonida

attestatsiya institutiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, martabaga tavsiya etilgan nomzodlar O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i asosida tuziladigan attestatsiya komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o'tkazilishi, komissiya esa tavsiya etilgan martabadan yuqori yoki past martaba darajasi berish taklifi bilan chiqishi mumkinligi belgilangan; bu esa xodimlarni baholash jarayonida professionallik va obyektivlikni oshiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga ishda alohida o'rnak ko'rsatganligi yoki xizmat burchini namunali ijro etganligi uchun belgilangan muddat tamom bo'lgunga qadar martaba darajasi berish, yuqori lavozimga ko'tarilish holatlarida izchillikka rioya qilmasdan ikki darajadan yuqori bo'lmagan martaba darajasi berish, birinchi marta attestatsiyadan o'tayotgan xodimlarga lavozim bo'yicha nazarda tutilganidan bir daraja past martaba darajasi berish kabi vakolatlar berilgani mazkur tizimning moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Martaba darajalarini berish uchun tegishli davlat organi yoki tashkilot tomonidan Adliya vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalariga tavsiyanoma kiritilishi, tavsiyanomaga xodimning kasbiy faoliyati, ishchanlik va axloqiy jihatlari aks etgan ma'lumot-tavsifnoma, shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi, ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar, malaka oshirish sertifikati, attestatsiya guvohnomasi va boshqa zarur hujjatlar ilova qilinishi belgilangan bo'lib, bu talablar jarayonni hujjatli asosda yuritish hamda subyektivlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Martaba darajasi berish O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtirilishi va mazkur buyruq asosida "Yurist-adliya" elektron

tizimiga tegishli o'zgartirishlar avtomatik kiritilishi, shuningdek buyruq nusxasi xodimning shaxsiy jildiga tikib qo'yilishi talab etilishi martaba institutini raqamli hisob hamda nazorat mexanizmlari bilan integratsiya qilish imkonini beradi.

Kadrlar bo'linmalari tomonidan martaba darajalarini har chorakda kamida bir marta xatlovdan o'tkazish, navbatdagi martabaga tavsiya etish uchun rahbarga axborot taqdim etib borish hamda xatlov natijasiga ko'ra hujjatlarni 10 kun muddatda tegishli adliya organlariga yuborish majburiyati belgilanishi tizimning muntazam ishlashini va kadrlar boshqaruvida intizomiy tartibni kuchaytiradi.

Martaba darajalari berish institutining yana bir muhim jihati – u faqat rag'batlantirish mexanizmi bo'lib qolmay, xodimlarning mas'uliyatini oshiruvchi intizomiy-huquqiy chora sifatida ham xizmat qiladi.

Xususan, martaba darajasini belgilangan muddatda o'tgan bo'lsada, xizmat faoliyatida yoki xulq-atvorida jiddiy kamchiliklarga ega xodimlarga navbatdagi martaba darajasi berilmasligi, xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi, badnom qiluvchi xatti-harakat qilganligi yoki xizmat vazifalarini muntazam yetarlicha bajarmaganligi uchun martaba darajalari pasaytirilishi mumkinligi, biroq pasaytirish ikki darajadan ortiq bo'lishi mumkin emasligi, shuningdek martaba darajalari umrbod saqlanishi va faqat ish faoliyatiga muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlari uchun ishdan bo'shatilgan taqdirda ulardan mahrum qilinishi mumkinligi haqidagi normalar martaba darajalarining huquqiy qiymatini oshiradi va xodimning

obro'-e'tibori bilan uzviy bog'laydi.

Bundan tashqari, martaba darajasidan mahrum qilish yoki uni pasaytirish vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi belgilanishi protsessual aniqlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ – 2733-son “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, bilan martaba darajalariga ega xodimlarning lavozim maoshlariga Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda qo'shimcha haq to'lanishi nazarda tutilgani martaba institutining moliyaviy rag'batlantirish funksiyasini kuchaytiradi va kasbiy o'sishni iqtisodiy manfaat bilan uyg'unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari berish tartibi yuridik xizmat institutining professional kadrlar korpusini shakllantirish, kadrlar barqarorligini ta'minlash, xodimlarning kasbiy maqomini mustahkamlash, xizmat intizomini kuchaytirish hamda faoliyat natijadorligini obyektiv mezonlar asosida baholashga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy mexanizm hisoblanadi.

Mazkur tizimning amaliy samaradorligi attestatsiya institutining ishlashi, hujjatlashtirishning shaffofligi, kadrlar xatlovining muntazamligi va elektron ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan hisob tizimining to'liq ishlashi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yo'nalishlarda yagona amaliyotni mustahkamlash va metodik yondashuvni kuchaytirish martaba institutining ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ – 2733-son “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3098964>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ – 2733-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining martaba darajalari to‘g‘risidagi nizom // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3098964>.

3. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarini martaba darajalari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2919, 2017-yil 28-avgust) // URL: <https://lex.uz/docs/-3321883>.

4. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari berish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2920, 2017-yil 28-avgust) // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3321995>.